



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: икономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: dequpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнесинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarda rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

Innovatsion ustunlik: Google'ning "20% vaqt" qoidasi va IT Parkdagi mahalliy startaplarda qo'llaniladigan moslashuvchan boshqaruv (Agile) metodologiyalari xodimlarning intellektual salohiyatini kapitallashuvga aylantiradi. Bu tashkilotga bozorda unikal, yuqori texnologik mahsulotlar bilan peshqadam bo'lish imkonini beradi. Narx va sifat bo'yicha raqobatbardoshlik: IT Park korxonalarida xodimlarning doimiy o'qitilishi (upskilling) mehnat unumdorligini oshirib, mahsulot va xizmatlar tannarxini tushiradi (cost leadership). Shuningdek, yuqori malaka ish jarayonidagi xatolarni kamaytirib, mijozlar sodiqligini va brend nufuzini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy iqtisodiy voqelikda inson kapitaliga yo'naltirilgan mablag'larga majburiy korporativ xarajat emas, balki tashkilot kelajagini belgilovchi eng yuqori strategik investitsiya sifatida qarash lozim. Google va IT Park kabi innovatsion ekotizimlar tajribasi shuni isbotlaydiki, inson resurslarini boshqarishning ilg'or modellarini (HR-KPI, Agile, uzluksiz upskilling) amaliyotga joriy etish — mahalliy kompaniyalarning nafaqat ichki bozorda barqarorlikni saqlashi, balki xalqaro miqyosda ham global ustunlikka erishishini ta'minlovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yuz.uz sayti ma'lumotlari
2. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ma'lumotlari
3. PMTI va Google korporativ hisobotlari
4. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. University of Chicago Press, 1993.
5. Schultz T.W. Investment in Human Capital. The American Economic Review, 1961.
6. World Bank. Human Capital Project Reports.

UDK: 336.77

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM KREDITLARINING IQTISODIY AHAMIYATI

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КРЕДИТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL CREDITS IN UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM

Gulimboyev Sindor In'omjon o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, Moliya va moliyaviy texnologiyalar
yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: O'zMU, Moliya va kredit kafedrasini mudiri
i.f.d., professor **X.X.Rejapov**
ORSID: 0000-0001-5403-9400

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Ta'lim kreditlarining oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, inson kapitalini rivojlantirish va yoshlarning ta'lim olish imkoniyatlarini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ta'lim kreditlari hajmi va undan foydalanuvchilar sonining o'sish dinamikasi tahlil qilinib, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim krediti, oliy ta'lim, inson kapitali, iqtisodiy rivojlanish, ta'limni moliyalashtirish, ta'lim qamrovi.

В данной статье анализируется экономическое значение образовательных кредитов в системе высшего образования Узбекистана. Подчеркивается роль образовательных кредитов в расширении охвата высшего образования, развитии человеческого капитала и повышении образовательных возможностей молодежи. Также анализируется динамика роста объема образовательных кредитов и числа их пользователей, разрабатываются существующие проблемы, а также предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: образовательные кредиты, высшее образование, человеческий капитал, экономическое развитие, финансирование образования, охват образования.

This article analyzes the economic significance of educational credits in Uzbekistan's higher education system. The role of educational credits in expanding access to higher education, developing human capital, and increasing educational opportunities for young people is examined. The study also analyzes the growth dynamics of educational loans and the number of beneficiaries, identifies existing challenges, and proposes recommendations for improving the effectiveness of the educational credit system.

Keywords: Educational credit, higher education, human capital, economic development, education financing, educational accessibility.

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sifati va qamrovini oshirish, har bir davlat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishga erishishda inson kapitali muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun, yoshlarning ta'lim olish imkoniyatini oshirish va ta'lim xizmatlaridan foydalanishini ta'minlash muhim.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi va bu davom etmoqda. Ushbu islohotlar natijasida talabalar soni va oliy ta'limga qamrov hajmi sezilarli darajada oshdi. Lekin, kontrakt to'lovlari mavjudligi ba'zi oilalar uchun moliyaviy qiyinchilik tug'dirmoqda. Ushbu muammoni hal etishda ta'lim kreditlari muhim moliyaviy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim kreditlari talabalarining oliy ta'lim xarajatlarini qoplash bilan birga, inson kapitaliga investitsiya qilish, malakali kadrlar tayyorlash va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-maydagi “Oliy va professional ta'lim tashkilotlari talabalari va o'quvchilariga byudjet mablag'lari hisobidan ta'lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish” to'g'risidagi PF-82-sonli farmoniga muvofiq, “2024-2025 o'quv yilidan boshlab ta'lim kreditlarini ajratish tartibi takomillashtirildi. Unga ko'ra, ta'lim kreditlari oliy va professional ta'lim tashkilotlarining faqat kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talaba va o'quvchilariga ajratilishi belgilandi. Farmonga asosan, oliy ta'lim muassasalarining birinchi bosqich talabalari hamda professional ta'lim tashkilotlari o'quvchilari kontrakt summasining to'liq miqdorida ta'lim krediti olish huquqiga ega bo'ldi.

Shuningdek, ikkinchi va undan yuqori kurs talabalari uchun kredit ajratishda akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari hisobga olinadigan bo'ldi. Xususan, GPA ko'rsatkichi 3 va undan yuqori bo'lgan talabalar kontrakt summasining 100 foizi miqdorida, GPA 3 dan past bo'lgan talabalar esa kontrakt summasining 80 foizigacha bo'lgan qismiga ta'lim krediti olishlari mumkin” [1]. Mazkur o'zgarishlar davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanish, talabalarining o'qishga bo'lgan mas'uliyatini oshirish hamda ta'lim kreditlari tizimining iqtisodiy samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonida quyidagilar nazarda tutilgan: “Ta'lim sifatini oshirish va aholining ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Strategiyada fuqarolarni sifatli ta'lim bilan qamrab olish, inson kapitalini rivojlantirish hamda yoshlarning zamonaviy bilim va kasblarni egallashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda ta'lim kreditlari tizimi muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Ta'lim kreditlari aholining turli qatlamlari, ayniqsa moliyaviy imkoniyati cheklangan


yoshlarning oliy ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, inson kapitaliga investitsiyalar hajmini oshirishga xizmat qiladi” [2].

Mazkur mavzu bo’yicha bir qator mahalliy olimlarimiz tadqiqot va izlanishlar olib borgan. Xususan, D. Gafurova “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalarida kredit ta’lim tizimini joriy etish istiqbollari” [3]; B. Usmonov va R. Xabibullayev “Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish” [4] bo’yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar va izlanishlar olib borishgan.

Ta’lim krediti-bu talabalarga oliy va professional ta’lim muassasalarida o‘qish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash maqsadida banklar tomonidan ma’lum muddatga va belgilangan shartlar asosida ajratiladigan mablag‘dir. Ta’lim kreditlarining asosiy vazifasi aholining oliy ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim xarajatlari bilan bog‘liq moliyaviy to‘siqlarni kamaytirish hamda inson kapitaliga investitsiyalarni rag‘batlantirishdan iborat. Jahon amaliyotida ta’lim kreditlari oliy ta’limni moliyalashtirishning samarali vositalaridan biri sifatida qo‘llanilib, yoshlarning sifatli ta’lim olishi va kelgusida mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Amaldagi tartibga ko‘ra, davlat oliy, professional va kasb-hunar ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlarga ta’lim kreditlari foizsiz (0 foiz stavkada) ajratiladi. Erkak talabalar uchun esa ta’lim kreditlari Markaziy bankning asosiy stavkasiga bog‘liq holda, hozirgi sharoitda yillik 14 foiz atrofida ajratilmoqda.

Mazkur imtiyozning ijtimoiy ahamiyati katta hisoblanadi. Avvalo, u xotin-qizlarning oliy ta’lim bilan qamrovini oshirish, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, foizsiz ta’lim kreditlari oilalarning moliyaviy yukini kamaytirib, ijtimoiy tenglikni ta’minlashga yordam beradi. Ta’lim darajasining oshishi esa kelgusida aholi bandligi, daromadlari va turmush farovonligining yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



1-rasm. 2019-2024-yillar oralig‘ida ajratilgan ta’lim kreditlari hajmi [5].

1-rasmdagi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019–2024-yillar davomida ajratilgan ta’lim kreditlari hajmi va undan foydalangan talabalar sonida barqaror o‘shish kuzatilgan. Xususan, 2019-yilda ta’lim kreditlari hajmi 100 mlrd so‘m atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 2,2 trln so‘mdan oshgan. Bu esa besh yil davomida ta’lim kreditlari hajmi qariyb 22 barobar oshganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ta’lim kreditlaridan foydalanuvchi talabalar soni ham sezilarli ravishda ortgan. Agar 2019-yilda kredit olgan talabalar soni 40 ming nafarga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 500 ming nafarga yetgan. Bu esa ta’lim kreditlari tizimining yoshlar orasida ommalashib borayotganini va oliy ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vositaga aylanganini anglatadi. Ayniqsa, 2021-yildan keyin kredit hajmi va talabalar sonining keskin oshishi oliy ta’lim qamrovini kengaytirish, ta’lim kreditlarini ajratish tartibini soddalashtirish hamda davlat tomonidan qo‘shimcha imtiyozlarning joriy etilishi bilan izohlanadi. 2024-yilda kuzatilgan eng yuqori o‘shish esa ta’lim kreditlari tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasidir.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlari ijobiy dinamika ko‘rsatayotgan bo‘lishiga qaramasdan, tizimning samaradorligini cheklovchi bir qator tizimli muammolar mavjud.

Birinchidan, qamrov doirasining torayishi muammosi kuzatilmoqda. “2024-2025 o‘quv yilidan boshlab, ta’lim krediti faqat kunduzgi ta’lim shaklida o‘qiydigan talabalarga ajratilishi belgilandi” [6]. Bu qaror sirtqi va kechki ta’limda tahsil oluvchi, asosan, mehnat bozorida band bo‘lgan yoki cheklangan moddiy imkoniyatga ega ijtimoiy guruhlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimidan chetlatdi. Bunday cheklov ta’lim imkoniyatlaridagi ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtirish xavfini o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, foiz stavkasining bozor konyunkturasiga bog‘liqligi moliyaviy barqarorlik xavfini keltirib chiqaradi. Ayni paytda, erkak talabalar uchun ta’lim krediti 14% miqdorida ajratilmoqda va Markaziy Bankning foiz stavkasiga bog‘liq. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida bu ko‘rsatkich talabalarga ortiqcha moliyaviy yuklanish yaratishi mumkin.

Uchinchidan, kredit qamrovi samaradorligining pastligi e’tiborni tortadi. “2024-yil birinchi choragida ma’lumotlar bazasida 141 ming nafar talaba ro‘yxatga olingan bo‘lsa-da, ulardan atigi 22 151 nafari, ya’ni 15,7 foizi kredit bilan qamrab olingan” [7]. Bu ko‘rsatkich axborot yetishmasligi, hujjatlashtirish murakkabligi hamda moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligidan dalolat beradi.

To‘rtinchidan, kredit qaytarish tizimining mehnat bozori bilan uyg‘unlashmaganligi bitiruvchilar uchun moliyaviy xavf tug‘dirishi mumkin. “Talabalar o‘qishni tugatganidan 7 oy o‘tib, asosiy qarzni 7 yil davomida qaytarishi shart” [8].

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi tavsiyalar ilgari surish mumkin:

Daromadga bog‘liq qaytarish modelini bosqichma-bosqich joriy etish. Avstraliya va Buyuk Britaniya tajribasida bitiruvchi ma’lum daromad darajasiga yetgandagina kredit qaytarishni boshlaydigan tizim muvaffaqiyatli ishlaydi. O‘zbekistonda ham mazkur model soliq ma’muriyati tizimi bilan integratsiyalashtirilgan holda tatbiq etilishi mehnat bozorida yuzaga keladigan moliyaviy xavfni sezilarli darajada kamaytiradi.

Kredit tizimining monitoring va axborot infratuzilmasini kuchaytirish. Oliy ta’lim muassasalarida kredit maslahatchilik xizmatini joriy etish, ariza topshirish jarayonini soddalashtirish va moliyaviy savodxonlik kurslarini o‘quv jarayoniga kiritish faol foydalanuvchilar qamrovini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta’lim muassasalarining sifat ko‘rsatkichlari va kredit hajmini bog‘lash mexanizmini ishlab chiqish. Bitiruvchilarning ishga joylashish ko‘rsatkichlari va ta’lim sifatini kredit ajratish hajmiga bog‘lash OTMLar o‘rtasida sifat raqobatini rag‘batlantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, ta’lim kreditlari tizimini takomillashtirish uchun moliyaviy barqarorlik, ijtimoiy adolat va mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlikni ta’minlash asosiy strategik yo‘nalish bo‘lib qolishi lozim.

Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, ta’lim kreditlari O‘zbekistonda oliy ta’lim qamrovini kengaytirish va inson kapitalini rivojlantirishning muhim moliyaviy vositasiga aylandi. So‘nggi yillarda kreditlar hajmi hamda undan foydalanuvchi talabalar sonining keskin ortishi ushbu tizimning ta’lim olish imkoniyatlarini oshirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, kredit qamrovining cheklanganligi, foiz stavkalarining yuqoriligi va qaytarish mexanizmlarining ayrim kamchiliklari tizim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun ta’lim kreditlarini takomillashtirish, ularning qulayligi va qamrovini oshirish orqali yoshlarning sifatli ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash hamda mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-maydagi PF-82-son Farmoni. “Oliy va professional ta’lim tashkilotlari talabalarini va o‘quvchilariga byudjet mablag‘lari hisobidan ta’lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-avgustdagi 527-son qarori. “Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun ta’lim kreditlari ajratish tartibi to‘g‘risida”.
4. Gafurova D. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida kredit ta’lim tizimini joriy etish istiqbollari. – Toshkent:2024.
5. Usmonov B., Xabibullayev R. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. – Toshkent: 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Asosiy stavka va kredit bozoriga oid statistik ma’lumotlar. – www.cbu.uz
7. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Oliy ta’lim tizimiga oid statistik ma’lumotlar va hisobotlar. – www.edu.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Ta’lim va aholi bandligi bo‘yicha statistik to‘plamlar. – www.stat.uz
9. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
10. World Bank. Financing Higher Education and Student Loan Systems: International Experience and Lessons for Developing Countries. – Washington D.C., World Bank Publications.

UDK: 338.24

**MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI
BAHOLASH: XORAZM VILOYATI MISOLIDA**

**ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В
РЕГИОНЕ: НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ**

**ASSESSMENT OF THE ECONOMIC EFFICIENCY OF THE DIGITAL ECONOMY IN
THE REGION: THE CASE OF KHOREZM REGION**

Bardiyev Sardorbek Umidbek o‘g‘li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda Xorazm viloyati misolida raqamli iqtisodiyotning mintaqaviy iqtisodiy samaradorlikka ta’siri ekonometrik modellash tirish asosida baholandi. Tadqiqotda IKT xarajatlari, internet foydalanuvchilari ulushi va elektron tijorat hajmining yalpi hududiy mahsulot o‘rishiga ta’siri ko‘p omili regressiya modeli yordamida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, mintaqaviy iqtisodiy samaradorlik, regressiya tahlili, IKT, elektron tijorat, yalpi hududiy mahsulot.

В данном исследовании на примере Хорезмской области проведена оценка влияния цифровой экономики на региональную экономическую эффективность с использованием методов эконометрического моделирования. С помощью многофакторной регрессионной модели проанализировано влияние расходов на ИКТ, уровня интернет-пользователей и объема электронной торговли на рост валового регионального продукта.

Ключевые слова: цифровая экономика, региональная экономическая эффективность, регрессионный анализ, ИКТ, электронная торговля, валовой региональный продукт.

This study evaluates the impact of the digital economy on regional economic efficiency using the example of the Khorezm region. A multiple regression model was applied to analyze the influence of ICT expenditures, internet penetration, and e-commerce volume on regional gross product growth.